
MUAMMO YUZASIDAN CHORALAR BELGILANDI



Oltiariq tumani Navoiy MFY Navoiy ko'chasi 24-A uyning 25-xonadonida yashovchi fuqaro Akbaraliyev Abbosjon Odiljon o'g'lining Ijtimoiy tarmoq orqali o'zi yashab turgan Navoiy mahallasida ichimlik suvi iste'mol uchun yaroqsiz ekanligi haqidagi murojaati bo'yicha hokimlik axborot xizmati mutasaddi tashkilot rahbarlari bilan muloqotda bo'ldi.

Mazkur masala "Farg'ona suv ta'minot" MChJ Oltiariq bo'limi hamda tuman Sanitariya eklogik osoyishtalik va jamoat salomatligi bo'limi mutaxassislari tomonidan o'rganilib, tegishli xulosalar rasmiylashtirilgani ma'lum qilinadi.

Unda Navoiy mahallasi ichimlik suv tarmog'idan olingan namunalarda bakteriologik laboratoriya tahliliga ko'ra organoleptik ko'rsatkichlari bilan sanitariya talablariga javob berishi, ammo umumiy qattiqligining yuqoriligi bilan O'z.DST talabiga javob bermasligi qayd etilgan.

Mavjud suv qudug'iga quvvati ortiqroq bo'lgan boshqa suv nasosi tashlanganligi natijasida yer osti qudug'ining loyqalanganligi bu jarayon vaqtincha, elektr quvvati o'chib-yongan paytda sodir bo'layotgani ma'lum qilinadi.

Umumiy xulosa sifatida Navoiy MFY xududida ko'p qavatli turar joy binolarining qurilishi va iste'molchilar soni ortib borishini inobatga olib "Farg'ona suv ta'minot" MChJ Oltiariq tuman bo'limi tomonidan aholini toza ichimlik suvi bilan ta'minlashning qo'shimcha choralarini ko'rishi ko'rsatib o'tilgan.

Murojaat yuzasidan ko'rilgan choralar fuqaro A.Akbarovga hamda ta'luqli tashkilotlarga yozma shaklda ma'lum qilinganligi aytiladi.

Oltiariq tuman hokimligi Axborot xizmati.
2023-08-15 18:13:26